



DEVIANT XULQ TURLARI VA UNING YUZAGA KELISH XUSUSIYATLARI

Zakirova Muxabbat Sabirovna

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi.

Farg'ona, O'zbekiston

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8170770>

ARTICLE INFO

Received: 14th July 2023

Accepted: 19th July 2023

Online: 21th July 2023

KEY WORDS

Deviant xulq - atvor, xulqida og'ish, ijtimoiy og'ish, asotsial, delinkvent.

ABSTRACT

Ushbu maqolada deviant xulq turlari va uning yuzaga kelish bosqichlari yuzasidan nazariy ma'lumotlar berilgan. Yoshlar xulqida og'ishning mavjud ekanligini va favqulotda holatlarda xulqning yo'nalishining o'zgarishini amaliy o'rganilgan.

Kirish. Shaxsni kamol toptirishda axloqiy tarbiyani asosiy hisoblagan sharq olimlari "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi" deb, ta'rif berganlar. Tarbiyalanganlikni esa yaxshi va yomon xulqlarning qay darajada shakllanganligi bilan o'lchaganlar. Shunga muvofiq ravishda har qanday harakat "to'g'ri" yoki "noto'g'ri", "yaxshi" yoki "yomon" deb tavsiflanadi. Bunday tushunishda me'yorning tabiiy korrelyati, ya'ni unga bog'liq tushuncha "buzilish" atamasi bo'lib hisoblanadi. Bu tushuncha orqali xulq-atvor yoki uning simptomlari bilan bog'liq belgilar tushuniladi.

Ijtimoiy xulq-shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borishni ham taqozo etadi. Chunki inson o'zini to'la anglamay turib, o'z shaxsiy «Men»i bilan kelishmay turib, o'zga insonni anglashi, o'zgalarning hissiy kechinmalarini ichdan kechirishi mumkin emas. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning quyidagi fikrlariga e'tiborni qaratsak: "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatdan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va bu masala biz uchun dolzarbligini va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir.

Nega deganda, bugungi yashin tezligida o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yozuv xavf- xatarlarga ham duchor qilmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga qanday og'ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. G'arazli kuchlar soda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskinva tahlikali sharoitda beparvo bo'lish,



loqayd bo'lish-qanchalik og'ir bo'lmasin, ochiq aytishga majburiyat-bu xiyonat, jinoyat bilan barobardir. Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohligimizni yanada

Asosiy bosqich. Delikvent (qonunga zid, antiijtimoiy) axloq muammosi ko'plab ijtimoiy fanlarning tadqiqoti uchun asosiy hisoblanadi. Qonunga zid axloqqa nisbatan turli yondashuvlardan foydalaniladi. Psixologik adabiyotlarda uni ko'pincha delikvent axloq sifatida ko'rsatadilar. *Delin-quent* so'zi lot, «nojo'ya xatti-harakat, aybdorlik» ma'nolarini anglatadi. Bu atama ostida biz shaxsning qonunga zid axloqi ushbu jamiyatda va ushbu vaqtda o'rnatilgan qonunlardan og'ishgan, boshqa odamlar yoki ijtimoiy tartibga, tinchlikka xavf soluvchi va o'zining oxirgi ko'rinishlarida jinoyat jazolanadigan aniq shaxsning harakatini tushunamiz¹.

Deviant axloqning asosiy turlariga jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'zini o'zi o'ldirish, daydilik, fohishalik va ruhiyat buzilishini kiritamiz.

Og'uvchi axloq-axloq moslashuvini yo'qotishning turli shakllarda ifodalanuvchi salbiy ruhiy-ijtimoiy rivojlanishi va ijtimoiylashtirish jarayoni buzilishining natijasi hisoblanadi.

Birinchi guruhni shaxsning delinkvent axloqi (lot. delinquens jinoyat xulq, qilmish) vakillari guruhi tashkil etadi. Unga yuqorida qayd etib o'tilgan toifadagi jinoyatchilar, shuningdek fohishalar va ma'lum yashash joyiga ega boimagan daydilar ham kiradi.

Delinkvent axloq ushbu jamiyatda va ayni vaqtda o'rnatilgan huquqiy me'yorlardan og'ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati.

Delinkvent shaxs keskin og'uvchi axloqqa ega boigan jinoyat jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi subyekt.

Ikkinchi guruhga kishining o'zini-o'zi barbod qiluvchi, ya'ni axloqi va harakatlari orqali, ruhiyati yoki yaxlit organizmning yanada tezroq yoki sekinroq va tiklab boimaydigan yemirilishiga olib keluvchi axloq vakillari kiritilgan. Bu - ichkilikbozlar, giyohvancilar, o'z joniga qasd qiluvchilardir.

Nihoyat, uchinchi guruhni kishining me'yoriy bo'lmagan axloqiy vakillari tashkil etgan bo'lib, uning tarkibiga turli ruhiyat buzilishlari bilan kasallangan kishilar kiradi.

Deviant xulq quyidagi bosqichlarda vujudga kelishi mumkin:

Birinchi bosqichda, "toza" shaklda deviant harakatlar bo'lmasligi mumkin, lekin ba'zi alomatlar paydo bo'lishi mumkin: - itoatsizlik, rad etish, ayrim ijtimoiy talablarni (oilalar, maktab, ijtimoiy guruh) bajarmaslik. Bunga sabab, noto'g'ri tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdadir. Ijtimoiy nazorat bu ta'sirni bartaraf etishga urinadi. Ijtimoiy yordam quyidagilarga yo'nalgan bo'lishi kerak: - tarbiyaviy ta'sirni korreksiya qilish (o'qituvchilar, ota-onalariga yordam); - aniq bir shaxsga va o'zgaruvchan tarbiya faoliyatiga; Ijtimoiy tashxis muvaffaqiyatli bo'lsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin, aks holda 2 xil natija bo'lishi mumkin: yo shaxs o'zi muamolarni hal qiladi, yoki deviant xulq mustahkamlanadi.

Ikkinchi bosqich ijtimoiy norma, talablarni chuqurroq buzilishi va birlamchi qonun buzarliliklar bilan xarakterlanadi (mayda o'g'irliklar, yolg'on, bezoriliklar). Kichik guruhlarga asotsiativ xarakterli xulq-atvorlar kiradi. Shaxsning ijtimoiy meyorlarga bo'lgan munosabatining ko'rinishlari: a) shaxs o'zining hatt-xarakatini normal qabul qiladi va o'zining qadriyatlarini va talablari bilan mos keladi. b) shaxs o'z hatti-harakatlarini maqullaydi, o'zining meyorlari va qadriyatlariga mos kelibgina qolmay u harakatlanayotgan guruh meyorlari va



qadriyatlariga ham mos keladi deb hisoblaydi. c) Shaxs o'z hatti-harakatlarini salbiy baholaydi, o'zining qadriyatlari va talablariga javob bermaydi. O'z vaqtida berilgan e'tibor va tashxis yordamida qilingan tuzatuv ishlari ijobiy natija beradi. Aks holda ijtimoiy xulq-atvorda chuqurroq buzilishlar bo'lishi mumkin.

Uchinchi bosqichda deviant xulq-atvor quyidegicha xarakterlanadi: takroriy qonun buzariq harakatlari va shu yo'nalishda ijtimoiy malakaga ega bo'lish (o'g'irlik, zo'ravonlik, chuqurroq bezorilik, olibso'tarlik, foxishabozlik va h.k). Shaxs yo o'z hatt-harakatlarini normal baholaydi va bu o'z qadriyatlari va talablariga mos keladi, yoki unda "identifikatsiya inqirozi" boshlanadi. Bu inqiroz o'zi haqidagi va jamiyat fikrining unga bo'lgan bahosi, ko'pincha atrofdagilarning u haqidagi identifikatsiya tasavvurlari bilan yakunlanadigan ijtimoiy nizolarga olib keladi. Ushbu bosqichda ijtimoiy salbiy qarashlarni korreksion yordam qilish jadal ravishda bo'lishi kerak va yangi, ijtimoiy ahamiyatga egalarini shakllantirish kerak.

Ushbu bosqichda ijtimoiy salbiy qarashlarni korreksion yordam qilish jadal ravishda bo'lishi kerak va yangi, ijtimoiy ahamiyatga egalarini shakllantirish kerak.

Sud qaroriga binoan o'ta-onalar, o'qituvchilar, psixologlar va h.k tavsiyasiga binoan atrofdagi ijtimoiy muhitning zararli ta'siridan ajratish maqsadida ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga majburiy xarakterli sanksiyalar chiqarishi mumkin.

Bu bosqichda shaxs muammolarni o'zi hal qilishiga kichik umid mavjud.

To'rtinchi bosqich – barqaror deviant xulq- atvor – o'z ichiga takroriy va og'ir qonun buzariq harakatlari, havfli ijtimoiy og'ishlarni ko'rinishini olgan doimiy asotsiativ xarakter olish ehtimoli bor.

Shaxs o'z hatti-harakatlarini salbiy baholashi mumkin, lekin yengish imkoniyatiga ishonchsizlikni his qiladi.

Korreksion tadbirlarining xarakteri va mazmuni uchinchi bosqichda bo'lgani singari saqlanib qoladi. Ijtimoiy harakatlardan vos kechilganda muammoni muvaffaqiyatli hal qilish ehtimoli mavjud, lekin ijobiy natija olishda umumiy qiyinchilikda shundaki, "tamg'a"(Stigmatizatsiya) alaqachon bosib bo'lingan. Shu sababli, muvaffaqiyatsiz yordamda deviat xatti-harakatni boshlash uchun barqaror tayyorgarlik xosil bo'ladi.

Beshinchi bosqich – barqaror, o'ta havfli deviant xulq-atvordir, barqaror asotsiativ harakatlari va og'ir ijtimoiy yog'ishlar bilan xarakterlanadi. Shaxsning ijtimoiy meyorlarga bo'lgan munosabati oldingi bosqichda bo'lgani kabi saqlanib qoladi.

Ushbu bosqichda, ijobiy natijaga erishishning ehtimolligi kam, chunki odamning jamiyatdan ajralishi barqarordir.

Biz o'z tadqiqotlarimizda yoshlar xulqida og'ishning mavjud ekanligini va favqulotda holatlarda xulqning o'zgarish yo'nalishini o'rganish maqsadida xarakter aktsentuatsiyaga moyil va Aktsentuallashgan xususiyatli o'quvchilar ajratib olindi va T.Liri, R.L.Laferje, R.F.Suchek "Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish" sorovnomasidan foydalandik.

Asosida shaxslararo munosabat xulq-atvorini va o'zgaruvchan xususiystini aniqladik. Mualliflarning fikricha individda shaxslararo munosabatlarning ko'rinishi ko'p darajali «Setka» (to'r) ga va xadiksirashning pasayishiga yo'nalganlikda paydo bo'ladi. Inson doim o'zgaralar bilan aloqada bo'ladi, uning shaxslararo munosabat xulq-atvorini va xuddi o'zgaruvchan doirada joylashganidek 16 ta sinfga bo'lish mumkin

1-jadval



Oktantlar bo'yich natijalar tahlili

	8 ballgacha % hisobida	12 ballgacha % hisobida	12 balldan yuqori % hisobida
I. Oktant	87	12	1
	8 ballgacha	8-16 ballarda	-
II. Oktant	89	11	
III. Oktant	91	9	
IV. Oktant	81	19	
V. Oktant	78	22	
VI. Oktant	91	9	
VII. Oktant	61	39	
VIII. Oktant	69	31	

Hukmini o'tkazuvchi - boshchilik qiluvchi.

I-oktant bo'yicha 87foizida o'ziga ishonch, yaxshi maslahatchi, murabbiylik va tashkilotchilik, rahbarlik xususiyatlarini namoyon qiladi. 12 foizida tanqidga toqatsizlik, o'z imkoniyatlariga oshirib baho berish. 1 foizida mulohazalarida didaktik - pand, nasihat uslubi, boshqalarga buyruq berishga keskin ehtiyoj, zulmi o'tkirlik belgilari.

II-oktant bo'yicha 89 foizida shaxslararo munosabatlarda o'ziga ishongan, mustaqil, raqobatchi. 11 foizida o'ziga bino qo'ygan yaqqol namoyon bo'lgan atrofdagilardan o'z ustunligini his qilish, o'z fikriga ega bo'lishga va guruhda boshqalardan ajralib turishga moyillik.

III-oktant bo'yicha 91 foizida samimiylik, soddadillik, maqsadlariga erishishda qat'iylik, 9 foizida ortiqcha o'jarlik, noxayrixohlik, tiyiqsizlik va jizzakilik.

IV-oktant bo'yicha 81 foizida mulohazalar va harakatlarning amaliyligi, ishonqiramaslik va murosasizlik, 11 foizida atrofdagilarga nisbatan badgumonlik va arazchilik, yaqqol namoyon bo'luvchi tanqidchilik, atrofdagilardan norozilik va shubhalanuvchanlikka o'sib o'tadi.

V-oktantda 78 foizida shaxslararo munosabatlarda kamtarlik, tortinchoqlik, birovning majburiyatlarini o'z zimmasiga olishga moyillik. 22 foizida to'la tobelik, ortiqcha aybdorlik hissi, o'zini kamsitish.

VI-oktant bo'yicha 9178 foizida atrofdagilarning ishonchi, yordami, ularning tan olishlariga ehtiyoj, 9 foizida yuqori darajada murosasozlik, atrofdagilarning fikriga to'la tobelik.

VII-oktantda 61 foizida referent guruh bilan to'la hamkorlikka, atrofdagilar bilan do'stona munosabatga intilish. 39 foizida shaxslararo munosabatlarda shu xulqning ortiqcha namoyon bo'lishi, yon berish xulqi, atrofdagilarga o'z do'stligini izhor qilishda o'zini tuta olmaslik, o'zini ko'pchilik manfaatlariga daxldorligini ta'kidlashga intilish.



VIII-oktantda 69 foizida rivojlangan ma'suliyat hissi, yaqqol namoyon bo'luvchi atrofda ilgarga yordam berishga tayyorlikda ko'rinadi. 31 foizida ballar rahmdillik, me'yordan tashqari iltifotlilik, ustanovkalarining gipersotsialligini yaqqol ifodalovchi o'z manfaatlaridan voz kechishlik sifatlarini ifodaladilar.

Oktantlar bo'yicha qiyidagi xususiyatlar aniqlanadi:

I-OKTANT – HUKMINI O'TKAZUVCHI BOSHCHILIK QILUVCHI.

II-OKTANT – MUSTAQIL - USTUN.

III-OKTANT – DANGAL - TAJOVUZKOR.

IV-OKTANT – BADGUMON - ISHONQIRAMAYDIGAN.

V-OKTANT – KO'NGILCHAN - TORTINCHOQ.


VI-OKTANT – MO'MIN QOBIL - QARAM TOBE.

VII-OKTANT – HAMKORLIK QILUVCHI - KELISHUVCHI.

VIII-OKTANT – MA'SULIYATLI - OLIY HIMMAT.

T.Liri shaxslararo munosabat xulq-atvorni 5 xil darajada analizini ko'rsatdi. Asosan ularni I, II, va V darajasiga ma'no berdi. 1-daraja insonlarni xulq-atvorini kuzatishni o'z ichiga oladi va boshqa odamlar tomondan xulq-atvoriga baho berishga bog'liq. II-daraja o'z ichiga o'zini shaxslararo munosabat xulq-atvorini yoki yaqinlarining bahosiga – ota-onasi, sheriklari, xotini va boshqalar kiradi. V-daraja individning muayyan odob-axloqini ideal «Meni»ni ideal tasnifi ustidan tavsifidir.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, hamma 16 omil «Dominant - bo'ysinuvchi» va «samimiylik - dushmanlik» omillari bilan bog'liqdir. Bu shu narsaga olib keldiki, hamma shaxslararo munosabat omillar shu 2 omildan kelib chiqadi. ularning bir-biriga kombinatsiyasi individning xulq-atvorini doirasidagi o'rnini, belgilaydi. Alohida shaxslararo munosabat omillar avtorlarning uch xil aspektlar orqali tasvirilaydilar:



Bu diagrammada ichki doira – xulq – atvor adaptatsiyasi (moslashuvi); o'rta doira – xulq-atvor xili, boshqalar tomonidan; tashqi doira – ekstrimallikka moyillik raqamlar bilan ko'rsatilgan.



Psixometrik tahlil usuli bir necha usullar bilan tekshirib ko'rilgan. Berilgan topshiriq, gomogenligini aniqlash doirasida, savollarning bir xilligi, taniqliligi tekshirilganda quyidagi xulosaga kelindi, savollarning taniqliligi (monoton) bir xilda pasaya bormoqda. savol va okton ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlik biserial koeffitsent korelyatsiyasini hisoblash bilan aniqlangan bo'lib, echimi 0,12-0,61 diapazon oralig'ida joylashadi va o'rtacha qiymati olinadi. Savollarning ijtimoiy talab darajasidaligi, alohida tavsilotlar bahosini taqqoslash va odamlar qiyofasini 5 balli sistemada tekshirish usuli bilan baholandi. Alohida omillar va oktonlar uchun korrelyatsiyasi 0,993 don 0,999 gachani tashkil etgan. Savolni qabul qilish va uning ijtimoiy talab darajasida ekanligi orasidagi munosabatlar V-bosqich yaqqol namoyon bo'ladi. (20% gina korrelyatsiya koeffitsenti statistik ko'rsatkichdan past bo'lgan). II-bosqichda esa (39 %) statistik ko'rsatkichlardan past bo'lgan II bosqichda ichki kelishuv omili koeffitsenti 0,35 dan 0,72 gacha qiymatni tashkil etgan bo'lsa, V-bosqichda 0,16 dan 0,66 gacha, alohida oktonlar uchun II bosqichda 0,62 dan 0,75 gacha, V bosqichda 0,46 dan 0,74 gacha vaqt bo'yicha mutanosiblik alohida omillar uchun korrektsiya koeffitsenti tasdiqlandi. 0,63 dan 0,81 gacha a oktonlar uchun 0,69 dan 0,80 gacha berilgan uslub va 16 RF orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi korelatsion matritsa ko'rsatdiki, 30 % atrofida korelatsiya statistik ahamiyat darajasida ekan.

2-jadval

Ikkinchi bosqichda olinga natijalar

	12-19 ball (% hisobida)		19 balldan yuqori (% hisobida)	
Hukmini o'tkazuvchi boshchilik qiluvchi	100 % boshchilik qiluvchi	Hukmini o'tkazuvchiga o'zgarishi kuzatilmadi	95 % boshchilik qiluvchi	5 % Hukmini o'tkazuvchiga o'zgarishi
Mustaqil - ustun	100 % mustaqillik	Ustunlikka o'zgarishi kuzatilmadi	98 % da mustaqillik	2 %da ustunga o'zgarishi namoyon bo'ldi
Dangal - tajovuzkor	100 % dangallik	Tajovuzkorlikka a o'zgarishi kuzatilmadi	90 %da dangallik	10 % tajovuzkorlikka o'zgarishi namoyon bo'ldi
Badgumon - Ishonqiramaydigan	98 % badgumon	2 % Ishonqiramaydigan xulqqa o'zgarishi	89 % Badgumon	11 % ishonqiramaydigan xulqqa o'zgarishi
Ko'ngilchan - Tortinchoq	91 % ko'ngilchan	9 % tortinchoqlikka o'zgarishi	80 % ko'ngilchan	20 % tortinchoqlikka o'zgarishi
Mo'min qobil – Qaram-	90 %	10 % qaram	89 %	11 % qaram-



tobe	mo'min qobil	tobe	Mo'min qobil	tobelikka o'zgarishi
Hamkorlik qiluvchi - Kelishuvchi	86 % hamkorlik qiluvchi	14 % kelishuvchi	68 % hamkorlik qiluvchi	28 % kelishuvchi
Ma'suliyatli - Oliy himmat	89 % ma'suliyatli		11 % oliy himmat	

Natijalardan ko'rinib turibdiki, xulqning og'ishi yoki buzilishi bosqichma-bosqich yuzaga keladi. Xulqning og'ishi yuqori bosqichlarga o'tgan sari favqulotdagi vaziyatlarda xulqi salbiy tomonga o'zgarishi, yo'nalishi yuz beradi.

References:

1. Владинска Н., Петрова Н. Социально-педагогическая модель коррекционно-воспитательной работы //Теория и практика социальной работы: отечественный и зарубежный опыт: -Тула: АССОПиР, 1993. Т. 2. –С.239.
2. В.Хомич, Психология девиантного поведенияб, Учебное пособие/. – Южно – Российский Гуманитарный Институт., Ростов-на-Дону. 2006. –С.83.
3. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения.-М.:2001.155с
4. То'laganova G. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. T.: "Universitet" nashriyoti 2005.
5. Zakirova Muxabbat Sabirovna (2023). MAKTABGACHA YOSHGADI BOLADA O,,ZI HAQIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(7), 104-113.
6. Sabirovna, Z.M. (2022). CHARACTERISTICS OF THE CHILD'S PERCEPTION OF THE ENVIRONMENT DURING THE PRESCHOOL AGE.
7. Zakirova, M., & Yuldasheva, M. (2022). Emotional well-being of children in preschool age. In *Проблемы психологического благополучия* (pp. 476-480).
8. Усмонов, Ш.А., Закирова, М.С., & Нуриддинов, Р.С. Ў. (2021). ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. *Современное образование (Узбекистан)*, (9 (106)), 12-16.
9. Закирова, М.С. (2021). РОЛЬ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ РЕБЕНКА. *ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ*, 325.
10. Закирова, М., & Юлдашева, М. (2022). Феномен одиночества как индивидуальный человеческий капитал личности студентов. In *Человеческий капитал как фактор социальной безопасности* (pp. 87-92).
11. Zakirova, M., & Sobirov, D.A. (2021). PSYCHOLOGICAL IMAGE OF THE STUDENT GROUP. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(4), 31-41.
12. Sabirovna, Z.M., & Vahobovna, A. O. (2022). CHARACTERISTICS OF PERSONALITY FORMATION IN THE SYSTEM OF VALUES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1675-1679.
13. Антонова, Н.В., Буякс, Т.М., Ермолаева, Е.П., Зайнобиддинов, Ж.И., Заковоротная, М.В., Кузин АВ, К.Н.В., & Кузьмин АВ, О. РАЗДЕЛ 2. ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ СПЕЦИАЛИСТОВ.



14. Zaynobiddinov, S.Z., Mamatokhunov, Y.A., & Rakhmatulina, R. (2019). METHODOLOGY OF THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL AND METHODICAL ACTIVITIES OF PUPILS IN THE PROCESS OF FORMATION OF THEIR INDEPENDENCE AT PHYSICS LESSONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7*(1).
15. Зайнобиддинов, Ж. (1989). Особенности влияния идентификации на формирование профессионально-педагогической направленности студентов. *Изд-во ЦКФЛРАО*.
16. Ж.Зайнобиддинов //IDENTIFICATION AND IMITATION ARE THE QUALITY OF MOTIVATION FOR CAREER CHOICE OF TEENAGERS// American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 17, June, 2023. 99-101.
17. Zaynobiddinov Jamoldin. (2023). THE ORIGIN OF STUDENTS WHO DO NOT LEARN AT SCHOOL DEPENDS ON SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS. *Uzbek Scholar Journal, 13*, 54-59.
18. Zaynobiddinov Jaloldin. (2022). STUDY OF NON-ASSIMILATING STUDENTS IN PSYCHOLOGICAL SOURCES IN FOREIGN LITERATURE *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10*(12), 1680-1685.
19. ЗАЙНОБИДДИНОВ ЖАЛОЛИДДИН //ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ// ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ. Екатеринбург, 19 марта, 2021 года. 305-311 стр.
20. Зайнобиддинов, Ж. (2021). ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. In *ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ* (pp. 305-311).
21. Ж.Зайнобиддинов //ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ОЛАЁТГАН БОЛАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИНИ ПСИХОЛОГИК ЎРГАНИШ// INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference. 27 th June, 2023. Chelyabinsk, Russia: "CESS", 2023. Part 20. 1013-120.
22. Topvoldiyevna, M.E., & Adxam o'g'li, X. A. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11*(1), 217-225.
23. Мирзажонов, Э., & Хомидов, А. (2022). КОМПЛЕКСНОСТЬ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДОШКОЛЬНИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ. *Новости образования: исследование в XXI веке, 1*(4), 209-219.